

## ERKIN VOHIDOVNING “YOSHLIK DEVONI” DA AN’ANA VA YANGILIK

Abdullayeva Safarxol O’ktam qizi,

O‘zbekiston Milliy universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni” tarkibidagi g‘azallar badiiy-estetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda, avvalo, shoir g‘azaliyotida an’ana va yangilik munosabatining o‘ziga xos jihatlari yoritilib, mumtoz adabiyotga xos poetik mezonlarning zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashuvi asoslab beriladi. Shoir ijodida Alisher Navoiy, Fuzuliy, Atoyī kabi klassiklar an’analari davom ettirilgani, biroq bu jarayon oddiy taqlid emas, balki ijodiy transformatsiya asosida amalga oshgani ilmiy tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** G‘azal, adabiy an’ana, yangilik, poetik obraz, badiiy mahorat, lirik qahramon, psixologizm, mumtoz adabiyot, badiiy tafakkur.

**Аннотация.** В данной статье газели из сборника «Ёшлик девони» Эркина Вохидова анализируются с художественно-эстетической точки зрения. В исследовании прежде всего раскрываются своеобразные особенности соотношения традиции и новаторства в газельном творчестве поэта, а также обосновывается гармоничное сочетание поэтических критериев, присущих классической литературе, с современным художественным мышлением. Научно анализируется, что в творчестве поэта продолжены традиции таких классиков, как Алишер Навои, Физули, Атойи, однако этот процесс осуществляется не как простое подражание, а на основе творческой трансформации.

**Ключевые слова:** Газель, литературная традиция, новаторство, поэтический образ, художественное мастерство, лирический герой, психологизм, классическая литература, художественное мышление.

**Annotation.** This article analyzes the ghazals included in Erkin Vohidov’s “Yoshlik devoni” from an artistic and aesthetic perspective. The study primarily explores the distinctive features of the relationship between tradition and innovation in the poet’s ghazal творчество, substantiating the harmony between poetic criteria characteristic of classical literature and modern artistic thinking. It is scientifically examined that the poet continues the traditions of classical figures such as Alisher Navoi, Fuzuli, and Atoyī; however, this process is not mere imitation, but is carried out on the basis of creative transformation.

**Keywords:** Ghazal, literary tradition, innovation, poetic image, artistic mastery, lyrical hero, psychologism, classical literature, artistic thinking.

**Kirish.** Adabiy jarayon uzluksiz taraqqiyot va vorislik asosida rivojlanadigan murakkab hodisa bo‘lib, har bir badiiy asar muayyan tarixiy, ijtimoiy va estetik muhit ta’sirida shakllanadi. Shu sababli adabiyotda o‘tmish tajribasidan butunlay uzilgan ijod namunasi mavjud emas. Har bir ijodkor an’anaga tayangan holda ijod qiladi, biroq shu asosda yangicha poetik qarashlar va individual uslubni namoyon etadi. Demak, an’ana va yangilik o‘zaro bog‘liq holda adabiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Shu o‘rinda “adabiy an’ana – o‘tmish adabiyoti to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qismi. Demak adabiy an’ana doirasiga o‘tmish adabiyoti erishgan yutuqlar, to‘plagan tajribalarning hammasi ham emas, balki uning muayyan davr ijodkorlari tomonidan dolzarb deb topilgan, boqiy qadriyat sifatida baholangan va o‘z ijodiy faoliyatlarida namuna deb hisoblagan qismigina kiradi.

Har bir avlod o‘tmish adabiyotiga faol ijodiy yondashadi, salaflar tajribasini o‘z davri qo‘ygan badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat qildiradi. Shunga ko‘ra adabiy an‘ana va yangilik hamqadamligi qonuniy hodisa bo‘lib, bu ikkisi dialektik aloqadagi birlikni tashkil et”[1. 12]ishi masalasini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

XX asr o‘zbek adabiyotida an‘ana va yangilik uyg‘unligi ayniqsa g‘azal janrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mumtoz poetik mezonlar saqlangan holda, g‘azal zamon ruhi, ijtimoiy ehtiyoj va shaxsiy kechinmalar bilan boyidi. Bu jarayonda Erkin Vohidov ijodi alohida ahamiyat kasb etadi: uning g‘azallarida mumtoz an‘analar zamonaviy fikrlash, ijtimoiy-falsafiy qarashlar va individual uslub bilan uyg‘unlashgan. “Yoshlik devoni” g‘azallari esa an‘ana va yangilik birligini yaqqol aks ettiradi.

Shuningdek, Poetik obrazlar muayyan tarixiy davr ruhiyati bilan ham uzviy bog‘liqdir. Har bir davr o‘z muammolari va kayfiyati bilan yashaydi, bu hol esa adabiy obrazlarda o‘z aksini topadi. Shu ma‘noda obrazni anglash – uni yuzaga keltirgan ijtimoiy-madaniy muhitni ham his etish demakdir. Biroq obrazning badiiy tabiati shundayki, u keyingi davrlar tomonidan ham yangicha ma‘noda qabul qilinishi mumkin. Ana shu xususiyat uning umrboqiyiligini ta‘minlaydi.

Erkin Vohidov g‘azaliyotida ijodiy ta‘sir, adabiy an‘ana va yangilik masalalari muhim o‘rin egallaydi. Shoir g‘azallarida arab, fors va turkiy adabiyot an‘analari ijodiy ruhda davom ettiriladi. Ayniqsa, ishqiy g‘azallarda mumtoz she‘riyat mezonlariga sodiqlik saqlanadi. Shu bilan birga, an‘anaviy obrazlar yangi talqin kasb etib, tasvir usullari, motivlar va kompozitsion tuzilma ham o‘z o‘rnini saqlaydi. Erkin Vohidov mumtoz an‘analarni davom ettirar ekan, ularni o‘ziga xos badiiy qarashlar bilan boyitadi.

“Fors adabiyotida arab she‘riyatida bo‘lgani kabi dastlab ishqiy she‘rlarda dunyoviy tuyg‘ular, ideal hayot tarzi, o‘yin-kulgu, ayol vasfi yetakchilik qilgan. She‘rlarda ma‘shuqaning jismoniy go‘zalliklari kuylanib, bunda arab shoirlarining tashbehlaridan keng foydalanildi. Jumladan, Daqiqiy yor yuzini to‘lin oyga, labini qirmizi yoqutga, bo‘yini sarv daraxtiga o‘xshatadi va sevgilisini sarvi sanobar bo‘ylik, qora ko‘zlik, shakkarlab, parichehra bir go‘zal, ammo ayyor ekanligini ta‘kidlab o‘tadi. Bu kabi an‘anaviylashib borgan tasvir usullari” [2. 34] Erkin Vohidov g‘azaliyoti uchun ham xos xususiyatdir.

Quyidagi misralar Erkin Vohidov poetik tafakkurining yorqin namunasi bo‘lib, unda yor yuzining oyga, qomatining esa sarvga qiyoslanishi orqali mumtoz adabiyot an‘analariga tayangan badiiy ifoda yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Kecha oydin mavjli dengiz,

Kuy to‘qir bedor sarv

Oy kelib sarv uzra qo‘ndi,

Bo‘ldi oyruksor sarv.

Ikki sarvning o‘rtasida

Men turibman lol-u gung,

Bir tomon sarv qadli dildor,

Bir tomon dildor sarv [3. 23]

kabi an'anaviy kompozitsion qurilmalar bilan bir qatorda, matnda kitobxon uchun yangicha badiiy zavq uyg'otadigan noodatiy ifoda vositalari ham kuzatiladi:

Ko'zlaring yulduzmi, yo'q,

Yulduz erur har uchquni,

Qorachig' kuygan quyoshu

Moviy osmondir ko'zing. [3. 30]

Mazkur misralarda shoir ko'z obrazini markazga olib chiqib, uni ko'p qavatli metaforik tizim orqali talqin etadi. Ko'z va undagi har bir uchqun yulduzga qiyoslanib, yor nigohi kosmik miqyosdagi nur manbai sifatida tasavvur qilinadi. Ko'z qorachig'ining "kuygan quyosh"ga, butun ko'zning esa "moviy osmon"ga o'xshatilishi obrazning badiiy ko'lamini kengaytiradi va unga chuqur poetik mazmun yuklaydi. Bu esa XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatiga xos yangicha badiiy tafakkurni aks ettirib, Erkin Vohidov ijodidagi novatorlik ruhini yaqqol namoyon etadi.

Ko'plab shoirlar singari, Erkin Vohidov ijodida ham Navoiy siymosiga murojaat qilish holati ko'zga tashlanadi. Shoir o'zining ma'naviy va ijodiy kamolotida Alisher Navoiy merosidan ilhom olib, uni o'ziga ustoz sifatida e'tirof etadi. Shuningdek, Erkin Vohidovning "Netay" radifli g'azali bevosita Alisher Navoiyning "Badoye' ul-vasat" devonidan o'rin olgan:

Meni Men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas [4. 243]

g'azalini yodga soladi:

Men sevarman jondan ortiq,

Sevganim suymas, netay?

Ham sevib men sevmagan

O'z holima qo'yimas, netay?

Bul menga jonin fido aylar

Va lek men beiloj,

Men yonarman ishq o'tida,

Sevganim kuymas, netay? [3. 47]

Erkin Vohidovning "Netay" g'azali Alisher Navoiyning shu yo'nalishdagi g'azali bilan badiiy va ma'naviy uyg'unlikni namoyon etadi. Har ikki shoir ham muhabbat mavzusini chuqur falsafiy ruhda talqin qilib, lirik qahramonning ichki kechinmalari, yorning beparvoligi hamda bundan tug'iladigan iztiroblarni tasvirlaydi. Vohidov esa Navoiy an'alarini davom ettirgan holda, sevgi va sadoqatning murakkab hamda ziddiyatli jihatlarini zamonaviy badiiy usullar vositasida ifoda etadi.

"Yoshlik devoni" tarkibiga kiritilgan quyidagi g'azal esa:

O'ltirar sochin tarab yor  
Chashmaning o'trusida,  
Chashma o'z aksin ko'rar  
Yor chehrasi ko'zgusida. [3. 17]

mumtoz she'riyat bilan chambarchas badiiy bog'liqlikni aniq ifodalaydi.

Ushbu g'azal mazmuni va obrazlar tizimi nuqtai nazaridan Atoyining:

Ul sanamkim, suv qirog'inda paridek o'lturur,  
G'oyati nozuklugidin suv bila yutsa bo'lur

mashhur g'azalini yodga tushiradi. Har ikkala asarda ham suv bo'yida o'tirgan yor obrazi asosiy poetik detallar qatorida bo'lib, tabiat manzarasi go'zallik timsoli bilan uyg'un tarzda tasvirlangan. Shuningdek, bu ikki g'azalning aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgani ularning shakliiy o'xshashligini ham ko'rsatadi.

Biroq o'xshash jihatlar bilan birga muhim badiiy farqlar ham mavjud. Atoyi g'azalida yorning nozikligi mubolag'a va ideallashtirish orqali, uni suvga qiyoslash darajasida tasvirlanadi. Erkin Vohidov ijodida esa ifoda jonliroq: yorning harakati, soch tarashi va chashmaning uning yuzini aks ettirishi orqali manzara dinamik tarzda beriladi, suv esa oddiy fon emas, balki tasvirning faol qismiga aylanadi. Shu tariqa, Vohidov mumtoz an'anani saqlagan holda uni zamonaviy poetik ruhda qayta talqin etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Adabiyotshunos olim Hamidulla Boltaboyev fikricha: "Shoir qo'llagan she'riy san'atlarni bir joyga to'plasak, san'atlar xirmonini yaratgan bo'lamiz. Erkin Vohidov ijodi bo'yicha bemalol tajnis va tazodlar lug'atini tuzish mumkin" [5. 84]. Darhaqiqat, shoir ijodining yangi jihatlari u qo'llagan nafis she'riy san'atlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bu bilan Vohidov mumtoz an'analarni butunlay inkor etib, yangi yo'nalish yaratgan, demoqchi emasmiz; aksincha, u ularni o'z davri ruhiga mos ravishda yangicha ohangda davom ettirgan. Jumladan, irsoli masal san'ati asosiga qurilgan "Masal borkim..." g'azali bevosita mavlono Lutfiyga mansub "Ayoqingga tushar har lahza gisu..." g'azalidan ta'sirlanib yaratilgan, deyish mumkin:

Ajab, vaslingga men endi  
Yetishganda ko'rindi moh,  
Masal borkim, og'iz oshga,  
Burun toshga tegibdir, voh! [3. 129]

Ushbu g'azalni shoir to'liq o'zbek xalq maqollari asosida yaratgan. Har bir baytda bittadan maqol qo'llanadi. Birinchi misrada ilgari surilgan fikr ikkinchi misrada go'yo dalil sifatida maqol bilan mustahkamlanadi. Shoir ayni paytda bir-biriga qofiyadosh so'zlar bilan yakunlanadigan maqollarni mahorat bilan tanlagan. Bu esa Erkin Vohidovning yuksak poetik mahoratini yaqqol namoyon etadi.

**Natijalar.** Ko'rinadiki, Erkin Vohidov g'azaliyoti an'ana va yangilikning o'zaro uyg'unligi asosida shakllangan bo'lib, mumtoz adabiyot an'analari saqlangan holda

zamonaviy ruh va shoirning shaxsiy poetik tafakkuri bilan boyitilgan badiiy hodisa sifatida baholanadi.

1-jadval

**Erkin Vohidov gʻazallarida anʻana va yangilik munosabati (jadval)**

Asosiy jihatlar	Anʻanaviy xususiyatlar (mumtozlik)	Yangilik va individual xususiyatlar	Izoh
Obrazlar tizimi	Oy, quyosh, sarv, gul, yor kabi mumtoz obrazlar keng qoʻllanadi	Koʻz – kosmik timsol (yulduz, osmon), qalb – murakkab psixologik makon sifatida talqin qilinadi	Anʻanaviy obrazlar semantik jihatdan kengaytirilgan
Ishq talqini	Ishq ilohiy va sadoqatli tuygʻu sifatida beriladi	Ishq psixologik iztirob, ichki konflikt va subyektiv kechinma sifatida chuqurlashtiriladi	Ishq talqinida psixologizm kuchaygan
Badiiy tasvir vositalari	Tashbeh, istiora, mubolagʻa, tazod anʻanaviy shaklda qoʻllanadi	Koʻp qavatli metaforalar, kutilmagan qiyoslar va turfa obrazlar paydo boʻladi	Tasvir vositalari murakkablashgan va zamonaviylashgan
Kompozitsiya	Gʻazal tuzilishi: matlaʻ, maqtaʻ, radif va qofiya tizimi saqlanadi	Kompozitsiyada dinamiklik, harakat va ichki dramatism kuchayadi	Klassik shakl ichida yangicha mazmun berilgan
Adabiy taʻsir	Alisher Navoiy, Fuzuliy, Atoyi anʻanalari davom ettiriladi	Tazmin, muxammas orqali ijodiy qayta ishlash va yangi talqin yuzaga keladi	Taqlid emas, balki ijodiy transformatsiya mavjud
Til va uslub	Mumtoz sheʼriy til unsurlari, aruz tizimi saqlanadi	Zamonaviy oʻzbek adabiy tili, sodda va taʼsirchan ifoda uygʻunlashadi	Til ikki davr oʻrtasida koʻprik vazifasini bajaradi
Lirik qahramon	Ideal oshiq, sadoqatli va sabrli obraz	Ichki kechinmalari murakkab, ziddiyatli, individual shaxs sifatida namoyon boʻladi	Lirik subyekt individuallashtirilgan
Mavzu doirasi	Ishq, hijron, visol, maʼshuqa vasfi	Ishq bilan birga hayot, jamiyat, shaxsiy iztirob va ong muammolari	Tematika kengaygan

Mazkur jadvaldan anglashiladiki, Erkin Vohidov gʻazaliyotida mumtoz adabiyot anʻanalari chuqur ildiz otgan holda, ular zamonaviy poetik tafakkur bilan uygʻunlashgan. Shoir klassik obraz va shakllardan foydalangan holda, ularning maʼno koʻlamini kengaytiradi hamda psixologik va falsafiy qatlamlarini yanada chuqurlashtiradi. Uning gʻazallari anʻana va yangilikning oʻzaro uygʻunligi asosida yuzaga kelgan yuksak badiiy hodisa sifatida namoyon boʻladi.

Erkin Vohidov ijodida, ayniqsa “Yoshlik devoni”ga kirgan gʻazallarda poetik obraz masalasi shoir badiiy tafakkurining yetukligini va mumtoz adabiyot anʻanalarini zamonaviy ruhda qayta talqin eta olganini koʻrsatadi. Shoir gʻazallarida obrazlar faqat estetik bezak yoki anʻanaviy timsol sifatida emas, balki inson ruhiyati, zamon

muammolari va shaxsiy kechinmalarni ifodalovchi asosiy badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mumtoz g'azal poetikasida oshiq, ma'shuqa, raqib, soqiy, may, ishq, hijron kabi obrazlar muayyan ma'no doirasiga ega bo'lgan. Vohidov esa bu an'anaviy timsollarni saqlagan holda, ularga yangi ma'no qatlamlarini yuklaydi. Natijada obrazlar nafaqat ramziy, balki psixologik va falsafiy mazmun ham kasb etadi. Bu esa shoir g'azallarining zamonaviy ruhini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Shoir g'azallaridagi lirik qahramon — oshiq obrazi klassik adabiyotdagi taqdirga tan bergan, itoatkor oshiqdan farqli ravishda, faol fikrlaydigan, o'z iztiroblarini anglab yetadigan va ularni so'z vositasida ifodalashga intiluvchi shaxs sifatida gavdalanadi:

Boq, bu tog'lar ortida bir

O'lka border ko'p yiroq,

Men qanotlik yo'lchiga bu

Bir nafaslik yo'l, biroq.

Yur, parivash, men bilan yur,

Bormi senda ishtiyoq?

Gul tutarman senga so'lmas –

Ul chamandan bir quchoq [3. 142]

Bu oshiq faqat ma'shuqaga emas, balki hayot, yoshlik, vaqt, ba'zan esa jamiyatga ham murojaat qiladi. Shu jihatdan Erkin Vohidov g'azallaridagi oshiq obrazi shoirning shaxsiy "men"i bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Ma'shuqa obrazi ham shoir ijodida an'anaviy go'zallik timsoli bo'lish bilan birga, ko'pincha mavhum va umumlashgan xarakter kasb etadi. Ayrim g'azallarda u yoshlik, orzu, ilhom yoki erkinlik ramzi sifatida talqin qilinadi:

Bir go'zalkim, husnidan el

Lol emish, hayron emish,

Ishqi birlan dillar obod,

Xonumon vayron emish [3. 117]

Ushbu g'azalda yor obrazi mubolag'ali ifoda orqali yuksak darajada ideallashtiriladi: uning go'zalligi beqiyos bo'lib, atrofdagilarni hayratga soladi. Yorning "lol" etishi so'zsiz maftunlik va hayrat ramzi sifatida husnning sehri kuchini ifodalaydi. Ishq esa ikki qirrali mohiyatga ega bo'lib, u qalblarni obod qilishi bilan birga iztirob va vayronlik ham keltiradi. Shu tariqa g'azalda husn va ishq o'zaro zid, biroq chambarchas bog'liq poetik kuchlar sifatida talqin etiladi.

Shu bilan birga, Erkin Vohidov g'azallarida ishq obrazining ham o'ziga xos jihatlariga guvoh bo'lamiz:

Dilga ilk bor tushdi nogoh

Dard atalgan qori ishq,

Dard debon kim aytmish oni,

Dardlarimga dori ishq. [3. 121]

Mazkur baytda shoir ishqni murakkab ruhiy kechinmalarni mujassam etgan poetik obraz sifatida tasvirlaydi. “Dilga ilk bor tushdi nogoh” ifodasi orqali ishqning kutilmaganda paydo bo‘lishi badiiy ifoda etilib, uning inson qalbiga beixtiyor kirib keluvchi kuch ekani ta’kidlanadi. Dastlab “dard” sifatida talqin qilingan ishq keyingi misrada “dardlarimga dori”ga aylanishi orqali badiiy qarama-qarshilik yuzaga kelib, mazmun yanada chuqurlashadi. Shu tariqa ishq bir vaqtning o‘zida ham iztirob, ham najot manbai sifatida umumlashtirilib, lirik qahramon ichki olamini ochuvchi markaziy timsolga aylanadi.

Erkin Vohidovning poetik obraz yaratish mahorati an’anaviy timsollarni zamonaviy ruh bilan boyitishi, oddiy detal va predmetlarga chuqur ramziy ma’no yuklashi hamda inson ruhiyatini nozik badiiy vositalar orqali ifodalashida yaqqol namoyon bo‘ladi. Natijada uning g‘azallaridagi obrazlar nafaqat estetik go‘zallik, balki falsafiy tafakkur mahsuli sifatida ham qadrlanadi.

Shoir g‘azallarida obraz yaratish san’ati an’anaviy she’riy vositalarning yangi mazmun bilan uyg‘unlashuvi, shaxsiy va zamonaviy badiiy tafakkur sintezi sifatida adabiyotda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu esa uning ijodini zamonaviy o‘zbek she’riyatining rivojlanishidagi muhim bosqichlardan biri sifatida baholashga asos bo‘ladi.

2-jadval

**Erkin Vohidov g‘azallarida poetik obraz yaratish xususiyatlari:**

Obraz turi	An’anaviy shakli	E.Vohidovdagi yangiligi	Badiiy vositalar	Mazmuniy ahamiyati
oshiq obrazi	taslimkor, hijron chekkan oshiq	faol, fikrlovchi, o‘z ruhiyatini anglaydigan shaxs	ichki monolog, murojaat, psixologik tasvir	insonning ichki dunyosi, o‘zligini izlanishi
ma’shuqa obrazi	go‘zallik timsoli, ideal yor	mavhumlashgan: yoshlik, orzu, ilhom ramzi	tashbeh, isti’ora, mubolag‘a	go‘zallikning falsafiy va ruhiy talqini
ishq obrazi	hijron va visol o‘rtasidagi tuyg‘u	ziddiyatli: ham dard, ham davvo	tazod, metafora, mubolag‘a	ruhiy kurash, insoniy kamolot
soch obrazi	go‘zallik belgisi	taqdir va hayot rishtasi timsoli	ramz, isti’ora	oshiq hayotining ma’shuqaga bog‘liqligi
oddiy predmetlar (taroq, ko‘zgu)	kam qo‘llanadi	jonlantirilgan, hissiy yuklama berilgan	jonlantirish, personifikatsiya	kundalik hayotning badiiylashuvi
tabiat obrazlari	fon sifatida	mustaqil poetik obraz darajasida	tashbeh, ramz, parallelizm	ruhiy holat va zamon ifodasi
gul obrazlari	husn va bahor timsoli	harakatdagi, jonli tizimga aylangan	jonlantirish, mubolag‘a	go‘zallikning ustuvorligi va estetik muhit

quyosh, oy obrazlari	nur va go‘zallik ramzi	yor husni oldida ojiz timsol	mubolag‘a, tazod	ma‘shuqa go‘zalligining mutlaqligi
-------------------------	------------------------	---------------------------------	---------------------	--

**Xulosa.** Erkin Vohidov ijodi, xususan “Yoshlik devoni”ga kirgan g‘azallar, o‘zbek she‘riyatida an‘ana va yangilik uyg‘unligining yorqin namunasidir. Shoir mumtoz adabiyotning boy poetik tajribasiga tayanar ekan, uni zamonaviy ruh, shaxsiy badiiy tafakkur va ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan boyitadi. Natijada uning g‘azallari klassik shakl va obrazlar doirasida qolib ketmay, yangi mazmuniy qatlamlar bilan kengaygan yuksak badiiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Vohidov g‘azaliyotida poetik obrazlar faqat estetik vosita emas, balki inson ruhiy olami, davr muammolari va shaxsiy kechinmalarni ifodalovchi muhim badiiy unsurdir. Shoir an‘anaviy oshiq, ma‘shuqa, ishq, hijron kabi timsollarni saqlagan holda, ularga psixologik teranlik va falsafiy mazmun yuklaydi. Bu esa obrazlarning semantik imkoniyatlarini kengaytirib, ularni zamonaviy poetik tafakkur darajasiga olib chiqadi.

Shuningdek, Erkin Vohidov ijodida ishq, yor va lirik qahramon obrazlari yangi talqinda namoyon bo‘lib, ular faqat ramziy emas, balki ichki kechinmalar va hayotiy munosabatlarni ochib beruvchi faol badiiy kuchga aylanadi. Shoirning mumtoz an‘analarga ijodiy yondashuvi, ularni zamonaviy ifoda vositalari bilan uyg‘unlashtirishi uning badiiy mahoratini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Umuman olganda, Erkin Vohidov g‘azaliyoti o‘zbek adabiyotida an‘ana va yangilikning dialektik birligi asosida shakllangan, mumtoz merosni davom ettirgan va uni zamonaviy bosqichga olib chiqqan yuksak badiiy hodisa sifatida baholanadi. Uning ijodi zamonaviy o‘zbek she‘riyatining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi hamda klassik va zamonaviy poetikaning uyg‘unlashuvini yaqqol namoyon etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 400 б.
2. Jo‘rayeva M. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she‘riyatida g‘azal janrining poetik xususiyatlari. Filol.fan.b.fals.dok.(PhD)diss.–Toshkent, 2026. – 159 б.
3. Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – 160 б.
4. Навоий, Алишер. Ҳазоин ул-маоний: тўла асарлар тўплами: 10 жилдлик / ЎЗР ФА, А. Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – 764 б.
5. Болтабоев Ҳ. Сўз сеҳри. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2006. – 136 б.